

UMUMTA'LIM MAKTABLARIDAGI GEOGRAFIYA XONASI VA UNI JIHOZLASH

Nurmamatov Jasur Tashpulatovich

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti,
Geografiya va ekologiya fakulteti magistranti,
Samarqand viloyati, Payariq tumanidagi 79-maktabning geografiya o'qituvchisi.
jassurziyo88@gmail.com

ANNOTATSIYA

Maqolada umumta'lim maktablarida geografiya xonasini tashlik etishdagi muhim tavsiyalar va geografiya xonasini jihozlashdagi qo'yiladigan talablar haqida yoritilgan.

Kalit so'zlar: *geografiya, xarita, masshtab, globus, atlas.*

GEOGRAPHY ROOM AND ITS EQUIPMENT IN GENERAL EDUCATION SCHOOLS

ANNOTATION

The article describes the important recommendations for organizing the geography room in secondary schools and the requirements for the equipment of the geography room.

Key words: *map, scale, globus, atlas.*

1. Geografiya xonasini jihozlashga qo'yiladigan talablar.

Geografik bilimlarni o'zlashtirishda geografiya xonasi va unda joylashgan jihozlar katta ahamiyatga ega. Geografiya xonasi mavjud bo'lgandagina tegishli o'quv vositalaridan ta'lim jarayonida samarali foydalanish mumkin. Geografiya xonasi o'quv vositalari majmuasini, mebellar, o'qituvchi va o'quvchilar uchun moslamalar, o'quv jihozlarini saqlash qurilmalari, texnik vositalar, ekspozitsion materiallar, ilmiy-metodik qo'llanmalardan iborat murakkab tizim bo'lib hisoblanadi.

Geografiya xonasini uch qismga bo'lishimiz mumkin: a) o'quvchilarni joyi; b) o'qituvchini joyi; v) jihozlar.

O'quvchilarni joyi. Geografiya xonasida o'quvchilarni joyi ikki o'rindiqli stol va stuldir. Ular yog'ochdan yoki temirdan qilingan bo'lishi mumkin. Bu yerda asosiy antropometrik talab, stol va stullarning balandligi o'quvchilar bo'yiga mos kelishi lozim.

O'quvchilar stollarini joylashtirayotganda umumiy gigienik talablarga amal qilish lozim. Stol va stullarni uch qator qilib joylashtirgan ma'qul. Ular sinf taxtasidan 2 m uzoqlikda joylashishi zarur. Deraza va stollar hamda stullar qatori oralig'idagi masofa 60 sm dan kam bo'lmashligi lozim. Oxirgi qatoragi stullar bilan shkaflar orasida o'tish uchun masofa bo'lmog'i lozim. O'quvchilar stollarda bo'yiga qarab o'tirishi lozim.

Geografiya xonasida o'qituvchini joyi. O'qituvchi odatda o'rta qatorni boshida joylashadi. Uning ish joyi o'quv vositalarini namoyish qiladigan joy hisoblanadi. O'qituvchi o'tirgan joydan sinfni hamma tomoni va sinfdagi barcha o'quvchilar ko'rinib turishi lozim. O'qituvchini ish joyi quyidagi talablarga javob bermog'i lozim:

1. Sinfni barcha tomoni hamda barcha o'quvchilar o'qituvchi nazoratidan chetda qolmasligi lozim.

2. O'qituvchini stoli yonida o'quv vositalarini namoish qiladigan yoki ulardan foydalaniladigan moslamalar bo'lmog'i lozim.

3. Geografiya darslarida ko'p hollarda asosiy o'quv vositasi sifatida xaritadan foydalanilganligi uchun kartografik vositalarni namoish qiladigan moslamalar bo'lishi e'tibordan qochmasligi lozim.

O'quv vositalarini namoyish qiladigan stolni balandligi 90 sm dan oshmasligi lozim, uning yuzasi esa 120x75 bo'lishi zarur. Namoyish stolida proeksion apparatlarni, deraza pardalarini, xaritalarni tushuntirib va ko'taradigan boshqaruv pultini joylashtirish mumkin. Namoyish stoli bilan birga o'qituvchi stoli ham bo'lmog'i lozim. Unda o'qituvchini kitoblari, daftarlari, darsga oid materiallar va sinf jurnali joylashadi. Mazkur joyda o'qituvchi o'tirib ishlaydi. Stolning baladligi 75 sm, yuzasi 75x76 sm bo'lmog'i lozim.

Geografiya xonasidagi sinf taxtasi o'qituvchi va o'quvchilar tomonidan turli o'quv maqsadlarda foydalaniladi, ularni quyidagi guruhlarga bo'lishimiz mumkin:

- yozish uchun;
- chizish uchun;
- chizmalarni, diagrammalarni, xomaki kartalarni chizish uchun;
- jadvallarni, rasmlarni joylashtirish uchun;
- ekranli qo'llanmalarni namoishi uchun;
- o'qituvchi tomonidan topshiriqlar yozish;
- o'qituvchi tomonidan dars mavzusi rejasini yozish uchun.

Sinf taxtalarining o'lchamlari quyidagicha bo'lmog'i lozim: 180x1105 sm. Jadvallar va rasmlarni saqlash uchun yasalgan sandiqlarni o'qituvchiga yaqin joylashtirilgani maqul.

Geografiya xonasida o'quv vositalarini joylash o'quv dasturi bo'limlari va sinflar bo'yicha bo'lishi lozim. Buning uchun bo'limli shkaflardan foydalaniladi. Mazkur shkaflar olinadigan va qo'yiladigan tokchalardan iborat bo'ladi. Bundan tashqari priborlarni saqlash uchun ham sandiqlar bo'lishi lozim. Shkaflarda kitoblar, jurnallar, audio, video qo'llanmalar saqlanadi.

Geografiya o'qitishni texnika vositalarini saqlash va ulardan foydalanish uchun moslamalar bo'lmog'i lozim. Masalan, diaproektorlar, kinoproektorlar, grofoproektorlar (plyonkalar bilan ishlash uchun).

Ma'lum bir mavzuga muammolar tayyorlash jarayonida turli xil ko'rgazmali qurollardan uyg'unlashgan holda foydalanishni ko'zda tutilsa maqsadga muvofiq bo'ladi. Matnli ma'lumotlar rasmlar, chizmalar va diagrammalar bilan boyitilgan bo'lmog'i lozim.

2. O'qituvchini geografiya xonasida olib boradigan tashkiliy xo'jalik ishlari.

Geografiya xonasi o'quvchilarni bilim olish faoliyatini samarali tashkil qilishda katta ahamiyatga ega. Shuning uchun geografiya xonasini tashkil qilishga katta ahamiyat berilmog'i lozim. O'qituvchilarni geografiya xonasida qiladigan ishlari quyidagi bosqichlardan iborat:

Birinchi bosqich. O'qituvchi geografiya xonasini qabul qilib oladi. Xonani qabul qilib olgandan so'ng o'qituvchi quyidagi ishlarni amalga oshiradi.

Xonadagi mavjud bo'lgan o'quv jihozlari ro'yxatini tuzadi. O'quv jihozlariga: mebellar, barcha o'quv vositalarini namoyish qilish va saqlash moslamalari kiradi. Buning uchun barcha ishga yaroqli bo'lgan o'quv jihozlarini ro'yxati tuziladi. Shu bilan birga ishga yaroqsiz ta'mirlash lozim bo'lgan o'quv jihozlari ro'yxati ham tuziladi. O'quv xonasida mavjud o'quv jihozlari optimal xona jihozlari bilan solishtiriladi va xonaning jihozlar bilan ta'minlanganlik darajasi aniqlanadi.

Ikkinchi bosqich. Mazkur bosqichda barcha o'quv jihozlari ularga ajratilgan joylarga o'rnatiladi. O'qituvchi va o'quvchining ish joyi tashkil qilinadi. O'quv vositalari saqlanadigan joy aniqlanadi va ular o'qitishni texnik vositalari va geografik kartalardan foydalanish uchun moslamalar bilan jihozlanadi. So'ngra quyidagi ishlar amalga oshiriladi:

- geografiya xonasini qayta jihozlash, namoyish stendlari uchun materiallar to'plash, o'lkashunoslik materialini yig'ish bo'yicha ishlar rejasi tuziladi;
- o'lkashunoslik burchagini va muzeyini jihozlash rejasi tuziladi. Unda o'lka tabiiy va iqtisodiy sharoiti tarkibiy qismlari namunalari, modellari va maketlari joylashtiriladi. Masalan, tog' jinslari namunalari, qishloq yoki shahar modeli, qishloq xo'jalik yoki sanoat maxsulotlari namunalari;
- geografik maydonchani jihozlash rejasi tuziladi;
- geografiya xonalaridagi barcha jihozlar, asbob-uskunalar ro'yxati tuziladi.

Uchinchi bosqichda geografiya xonasini keyingi faoliyati davomida yetmayotgan jihozlar to'ldiriladi, eskilari yangilanadi, yangi jihozlar chiqqan bo'lsa ular olinadi va o'rnatiladi. Kutubxona yangi adabiyotlar bilan boyitib boriladi. Bir vaqtning o'zida geografiya xonalaridagi barcha o'quv jihozlari tartibga tushiriladi va ro'yxati tuziladi. O'lkashunoslik burchagi yoki muzeyi hamda geografiya maydonchasi jihozlanadi.

Mazkur ishlarni barchasini geografiya o'qituvchisi o'zining xo'jalik- tashkiliy faoliyati davomida bajaradi va uning muhim pedagogik faoliyatiga kiradi. Geografiya xonasi jihozlanish darajasi o'quvchilarni bilish faoliyatini samarasini belgilab beradi. Shuning uchun geografiya xonasini jihozlash bo'yicha o'qituvchi aniq rejani ishlab chiqmog'i lozim.

3. Geografiya xonasidan o'quv va sinfdan tashqari ishlarda foydalanish.

Hozirgi vaqtda geografiya xonasidan samarali foydalanish muammosi hamon dolzarb muammolardan bo'lib turibdi. Chunki geografiya xonasidagi ayrim o'quv vositalari umuman yil davomida foydalanilmaydi, ayrimlaridan, masalan, geografik kartalar muntazam foydalaniladi.

Geografiya xonasida joylashgan barcha o'quv vositalaridan dars jarayonida samarali foydalanish uchun ularni ta'lim jarayonida bir nechtasidan uyg'unlikda foydalanish zarurligini geograf-metodist olimlar takidlab o'tishgan (Yu.G. Barinova 1983 y)

Dars jarayonida o'quv vositalaridan uyg'unlikda foydalanish quyidagi samaralarni beradi:

- geografik ob'ekt, voqea va hodisalar haqida aniq tasavvurlar hosil qilishga yordam beradi. Masalan, tabiiy ob'ektlar, audiovizual va ko'rgaz-mali vositalar;
- yangi darsni tushunishga va yangi tushunchalarni shakllantirishga imkon beradi. Masalan, chizmalar, kartalar, modellar va h.k;
- olingan bilimlarni amalda qo'llashni taminlaydi. Masalan, ma'lumotnomalar, turli xil topshiriqlarni yechish uchun tayyorlangan tarqatma materiallar, yozuvsiz kartalar, test topshiriqlari, yozma topshiriqlar va h.k.

O'quv jihozlari majmualari yoki ularning ayrim qismlari (tarkiblari)dan dars jarayonining turli qismlarida foydalanish mumkin (takrorlashda, yangi mavzuni o'rganishda, olingan bilimlarni mustahkamlashda). Bevosita darslardan tashqari geografiya xonasida sinfdan tashqari ishlarni, geografiya to'garagi mashg'ulotlarini o'tkazishda, o'lkashunoslik va boshqa ishlarni olib borishda ham foydalanish mumkin.

Geografiya xonasida sinfdan tashqari ishlarni tashkil qilishda juda katta ahamiyat kasb etadi. Geografiya xonasi jihozlaridan foydalanib o'quvchilar darsdan tashqari vaqtlarida geografik kechalar, sayohatlar, ekursiyalar, tanlovlar rejalarini tuzishlari mumkin. O'quvchilar geografik borliq, voqea va hodisalarni modellashtirish,

ularni xomaki materiallarini yasash ko'nikmalariga ega bo'lishadi, texnik o'quv vositalaridan foydalanish malakalariga ega bo'lishadi.

Geografiya xonasidagi kutubxonadan foydalanib o'quvchilar sinfdan tashqari mutoala bilan ham shug'ullanishlari mumkin. Geografiya xonasidagi kutubxonalarda adabiyotlar quyidagi yo'nalishlarda saqlanadi: ilmiy-geografik, ilmiy-fantastik, ilmiy-ommabop, sarguzasht va badiiy adabiyotlar. Geografiya xonasiga keladigan kitoblar mavzular, bo'limlar, kurslar bo'yicha guruhlashtiriladi. Har bir kitobga annotatsiya yoziladi.

Geografiya xonasida to'garak mashg'ulotlari ham o'tkaziladi. O'quvchilar mashg'ulot va muxokama o'tkazish uchun turli xil mavzular va topshiriqlar beriladi. Geografiya xonasida o'quvchilar okean tubiga va Yer qariga sayohat uyushtirishlari, fazoga sayohat qilishlari, tropik o'rmonlarda yurishlari, o'z shahri, tumani, viloyati, Pomir va Tyanshan tog'lariga sayohatga chiqishlari mumkin. To'garaklarning o'quv qo'llan-malari va vositalari tayyorlash bo'limi geografiya xonasini yangi o'quv vositalari bilan ta'minlashi mumkin. Geografiya to'garagini mazkur bo'linmasining ishlariga yuqori sinf o'quvchilarini ham jalb qilish mumkin. Bunday sharoitda geografiya xonasida yetishmaydigan jihozlar ro'yxati tuziladi va ular o'quvchilar yordamida tayyorlanib joy – joyiga qo'yiladi.

O'quvchilar tomonidan olib boriladigan o'lkashunoslik materiallari geografiya xonasida o'lkashunoslik burchagiga o'rnatiladi va dars jarayonida foydalaniladi. O'lkashunoslik ishlari natijalari tog' jinslari namunalaridan, gerbariyarlardan, sanoat va qishloq xo'jaligi maxsulotlari namunalaridan, hamda diagrammalar, chizmalar, ko'rgazmali qurollardan iborat. Ular darsdan va sinfdan tashqi ishlarda foydalanilishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

1. Mirzaliyev T. va boshqalar. “Kartalar va ulardan maktabda geografiya darslarida foydalanish”. Toshkent, “O‘qituvchi”, 1977.
2. Мирзалиев Т. “Картография” Ташкент, Ўзбекистон Республикаси Фанлар академияси “Фан” нашриёти, 2006.
3. Хамиллов А. “Geografiya fanidan turli boshqotirmalar to‘plami”
4. Mirzaliyev T., Musayev I. “Kartografiya” Toshkent . «Ilm ziyo» 2007.
5. Mirzaliyev T., Safarov E. Yu., Egamberdiyev A., Qoraboyev J. S . “Kartashunoslik” Toshkent, Cho‘lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi 2012.
6. Reymov P., Uzaqbaev J. “Kartografiya” Nukus 2013.
7. Negmatov S. Q. “Topografiya va kartografiya asoslari” *fanidan* ma’ruzalar matni, Navoiy 2016.
8. Vaxobov H., Mirzamuhammedov O. T. “Geografiya o‘qitish metodikasi” Namangan 2016.
9. Muqumova H. “Geografiya o‘qitish metodikasi” fanidan O‘quv-uslubiy majmua, Qarshi 2017.
10. Vaxobov H., Alimqulov N. R., Sultanova N. B. “Geografiya o‘qitish metodikasi” Toshkent 2020.